

SURXONIMNING O'G'LONI

Qurbonov Dilshodbek Norxidir o'g'li

*Termiz Davlat Unversiteti madaniyat va san'at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish yo`nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotasiya: Muallif ushbu maqolada surxondaryoning mashhur yozuvchisi Shukur Xolmirzayev ijodi va uning asarlaridagi yurt ishq, yurt sevgisi haqida va asarlarida san'at va adabiyot g'oyalar haqida so'z boradi.

Tayanch so'zlar : Alpomish, tog'liklar, Barchinoy, Boysun, adabiyot , yozuvchi, ijod, taffakur, ruhiyat, sarlavha.

Surxonimning mard pahlavon yigiti alpomishlar yurti surxonimni o'g'loni, Shukur Xolmirzaev 1940 yil 24 martda Surxondaryo viloyati Boysun tumanida tug'ilgan. O'zbekiston xalq yozuvchisi (1991). Toshkent universitetining jurnalistika fakultetini tugatgan (1963). Dastlabki hikoya va ocherklari 1958 yildan nashr etila boshlagan. «Oq otli» (1962), «To'lqinlar» (1963), «O'n sakkizga kirmagan kim bor?» (1965) qissalari, shuningdek, yozuvchining shu davrda yozgan hikoyalari «Olis yulduzlar ostida» (1971), «Hayot abadiy» (1974), «Og'ir tosh ko'chsa...» (1980), «Yo'llar, yo'ldoshlar» (1984), «Bodom qishda gulladi» (1986), «Tog'larga qor tushdi» (1987) singari to'plamlaridan o'rin olgan. «So'nggi bekat» (1976), «Qil ko'prik» (1984), «Yo'lovchi» (1987), «Olabo'ji» (1992), «Dinozavr» (1-kitob, 1996) kabi romanlar muallifi. «Qora kamar» (1987), «Ziyofat» (1990 yili sahnalashtirilgan) dramalari ham bor. yozuvchining ijodi g'uyoki dengizdagi suv yoyinki saxrodagi qum zarasiga qiyos etishimiz mukun, chunki SHukur Xolmirzaevning assaralarining kitoblarining har bir sahifasi ma'nolaar xazinasidir.

Yozuvchi 2005 yil 29 sentyabrda Toshkent shahrida vafot etgan bulsada lekin minglab qalblarga o'zining asarlari orqali joy olishga ulgurgan va hali hanuzgacha tirik va biz bilan yashab kelmoqda . Shuni aytishadida buyuklar o'lmaydi buyuklar mangu tirikdirlardir Shukur Xolmirzaev ham ana shunday buyuklar toifasiga kiradi. Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti (1989) hamda «Mehnat shuhrati» (1999) ordeni bilan taqdirlangan.

Bizga malumki yozuvchi adabiyot va san'at sohasida chuqur iz qoldirgan . San'atsiz, adabiyotsiz yashashni tasavvur etolmaydigan qahramonlar talqini Shukur Xolmirzaevning so'nggi davrda yozgan asarlarida bot-bot ko'zga tashlanadi, binobarin, ushbu omil ham yoshi ulg'ayib, hayotdagi aqidalari qat'iylashgan, xulosalari aniqlashgan muallifning maslagi haqidagi tasavvurimizni yanada boyitadi. Ijodkorlikning qismat, umr savdosi ekanini anglatuvchi ta'kid adibning adabiy-tanqidiy maqolalarini umumlashtirib turuvchi yagona mushtarak belgidir. Yozuvchi

bir asarida shunday deydi: Muhabbatning ijodga ta'siri haqida gap ketadigan bo'lsa, fikrim shu: ijodning tagida aslida muhabbat yotadi deb takidlaydi. Biz ushbu jumla orqali muhabbatsiz ijod, ijodsiz muhabbat bulmasligi haqida bilishimiz mumkun. Shukur Xolmirzayev xuddi shunday falsafiy qarashlari yuqori shaxsligini ushbu jumlar orqali ham bilishimiz mukun.

Shukur Xolmirzayev o'n sakkiz yoshida adabiyotimiz olamiga shahdam odimlar bilan kirib kelgan yozuvchilarimizdan biri hisoblanadi. Yozuvchining ilk ijodiy asari hikoya janri bilan bevosita bog'liq. Har qanday adabiy asar tahlili haqida gap borar ekan, adabiyotdan tashqari o'sha adabiyotni yaratgan yozuvchi shaxsini ham e'tibordan soqit qilmasdan o'rganishga chorlaydi. Ijodkor o'z kuzatishlarini yozishi kerak degan ekan qaysidir olimimiz. Bu jihatdan qaralganda inson tafakkuri haddan tashqari boy. Hatto miya faoliyatining mingdan o'ttiz foizini ham sarflamaymiz. Shuning uchun adabiyotda insonning tafakkuri ham kerak. Masalan, tushni olaylik, odamlar hech qachon o'ylamagan, o'ngida ko'rmagan narsani tushida ko'rishi mumkin. Bu ba'zan ta'bir qilinsa, ba'zan karomat qilinadi, hatto vasvasaga ham tushiladi. Axir biz tush ko'rishimizni inkor etmaymiz-ku, hatto gapirib ham yuramiz. Endi nega buni asarda tasvirlamaslik kerak. Bu ham insonning bir belgisi-ku. Bizda ko'p hollarda yozuvchining ijodini shaxsidan ayro holda ko'ramiz. Bu ham yozuvchi o'zining asarlarini juda sevganidan, shu sabab ularni tanqidiy fikrlardan ham himoya qilishga yozuvchini o'rgatgan deya olamiz. Yozuvchi hayotiy jarayonlarni hikoyalarida yoshlik va talabalik yillarining o'ziga xos romantikasi sifatida ifodalagan bo'lsa, ikkinchi tomondan, yozuvchi tug'ilib o'sgan Boysun tumanida yashovchi turfa tabiatli kishilar hayoti, jamiyatda va ular ruhiy olamida kechgan kurash va o'zgarishlar o'zining badiiy talqinini topganligini asoslab beradi. Bundan tashqari Shukur Xolmirzayev ijodining ma'lum bir qismini tabiat va inson munosabatlarini badiiy tadqiq etishga bag'ishladi. Bu munosabatlar haqida adibniig o'zi iqrar tarzida yozgan ushbu so'zlaridan ham anglash mumkin: «Men Boysun rayonida tug'ilganman. Boysun - tog'lik joy. O'n ikki yoshimda o'zim yolg'iz miltiq ko'tarib ovga chiqib ketardim. So'ngra, bu yerda yashirishning hojati yo'q: qaysarroq edim... Lekin bitta narsani yaxshi ko'rardim: masalaning mohiyatini tushunishni» Bu so'zlardan anglashiladiki, 70-yillarning boshlarida, ya'ni ijodiy prinsiplari hali to'la shakllanib ulgurmagan paytda yosh yozuvchi voqyelikni badiiy idrok etish yo'llarini o'rgana boshladi. U inson hayotini, yashash tarzini, abadiy tiriklik maibaini tabiat bilan uyg'unlikda, bog'liqlikda, birlikda deb biladi. Bu xulosaga u hozirgi Surxon elining olis avlod-ajdodi bo'lmish qadimgi baqtriyaliklar hayoti tarzini kuzatish asnosida keladi, bu o'lkaning ko'hna ibtidoiy xalqlari dastlab tabiatga sig'inishganini, uni ulug' bir ne'mat sifatida qadrlashganini anglaydi. Yomg'ir yog'may qurg'oqchilik bo'lgan paytda ko'kdan yomg'ir tilab qo'shiq aytishlar, bahorning birinchi darakchisi bo'lmish boychechak chiqishi bilan bolalarning uyma-uy yurib xabar berishlari va

qariyalarning eson-omon bahorni qarshilaganlari bois ko‘zlariga giyohni surib, tavof qilishlari, Navro‘z quvonchlari o‘sha qadim davrlardan to hozirgacha, ayniqsa, Surxondaryoda saqlanib qolganligi, yozuvchining bolalik xotiralarini ham band etgani sezilib turadi. Yozuvchi bolaligida bo‘lib o‘tgan xotiralari haqida ko‘plab asarlar yozgan bular “O‘zbek bobo”, “Bodom qishda gulladi”, “O‘n sakkizga kirmagan kim bor”, “Bandi burgut”, “Qadimda bo‘lgan ekan” asarlarida, garchi o‘qish jarayonida adibning aytar muddaosi bizga ayonlashib borayotgan bo‘lsa-da, detallarga, holatlarga, gap-so‘z tabiiyligiga, qahramon yasama emas, judayam jonli chiqishiga tamom beriladiki, buning zamirida tagingdagi stul yoki ko‘rpacha ham suyagingga botib jismoniy og‘riqlar ham beruvchi uzoq o‘ylov, kashf, ilhomiy, uni boshqarib turgan uzoq va zahmatli aqliy mehnat yotganligini g‘o‘r tajribam tufayli his etaman. Xayol, xotira, so‘z, ibora, maqollar, keng tafakkur, kichkina, ko‘rimsiz detalni ham jonlantirib yuboruvchi o‘zigagina xos adabiy “priyom”, manyovr, istehzo – bular barini yuzaga olib chiqadigan ustakorlik. Hali bu yoqda yozuvchi ilgari surayotgan g‘oya, ma’naviy prinsiplar bor. Mana shu cho‘ng “lashkar”ni maydonga yoyib yuborib, so‘ng uni to‘riga ilintirib yig‘ishtirib, “ov mahsuloti”ni siz tomoshabinga, mana, deb chiroyli ko‘rsata olish va undan keyin yuragingizda uzoq vaqt kezinib yuradigan ta’sir tuyg‘usini – hamma-hammasini umumlashtirib, men professionallik demoqchi bo‘laman. Bu ta’rifning to‘liq ekaniga da’vo qilmayman. Murod Muhammad Do‘st bir maqolasida Shukur aka oyog‘i yerdan uzilgan prozani yerga tushirib qo‘ydi, deb yozibdi. Bu ham xosu mos emas, o‘zigagina mansub. faqat bulargina professionallik ko‘rinishi emas. Bu – Shukur Xolmirzayevning professionalligi.

Har bir asaridagi har bir qaxramoni obraziga yozuvchining o‘zi kirib bevosita usha obrazda yashashligini kurishimiz mumkun.

Yozuvchining deyarli har bir asarida boysun , surxondaryo hayoti surxandoryoning iqlimi tog‘liklar yurti surxondaryo zaminining mard polvonlari , barchinoydek qizlari haqida so‘z boradi . Bejizga sarlavhamizni surxonimning o‘g‘loni deb quymadik, bitta o‘g‘lon bitta farzand bulsa shunchalik bular yurtini ,kindik qoni tomgan yurtini har bir satridan quymagan surxonimining o‘g‘lonidan faxrlanib yashashimiz lozim.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida hayotiy jarayonlarning tasviri va o‘ziga xos jihatlari Mamayusupova S.M.
2. Otabek Safarov «Yoshlik» jurnalining 2012 yil 9-sonidan olindi
3. SHukur Xolmirzayev ijodida maqol va matal munosabatlari. S.Mamayusupova FarDU.Ilmiy xabarlari.2019 yil 3 son
4. Ziyouz.com